XRISTIAN TARIXCHILARINING CHERKOV TARIXI DAVRLANISHI BORASIDAGI YONDASHUVLARI

ПОДХОДЫ ХРИСТИАНСКИХ ИСТОРИКОВ К ПЕРИОДИЗАЦИИ ЦЕРКОВНОЙ ИСТОРИИ

APPROACHES OF CHRISTIAN HISTORIANS TO THE PERIODIZATION OF CHURCH HISTORY

Nozimakhon AGZAMOVA,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
UNESCO chair on religious studies and comparative study of world religions
PhD student,
agzamovanozima486@gmail.com
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

DOI: 10.47980/IIAU/2024/2/8

Annotatsiya: *Yurtimizda konfessiyalar o‘rtasidagi bag’rikenglikni mustahkamlash, jamiyatda diniy tolerantlikni ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada aytishimiz mumkinki, xristianlik tarixini o‘rganish qator fanlar doirasida, jumladan, dinshunoslikda, tarixshunoslikda dolzarb masala hisoblanadi.*

Xristian jamoalari tarixini tadqiq etishning amaliy ahamiyati aholi orasida noislomiy diniy yo‘nalishlar faoliyatiga doir ma’lumotlarning chegaralanganligi sababli, ularning tuzilishi, faoliyat doirasi hamda urf-odatlari bir xil emasligining yoritib berilishida namoyon bo‘ladi.

Ushbu maqolada keltirilgan ma’lumotlar nazariy, tarixiy va qiyoslash singari metodlar yordamida ochib berilgan.

Tarixni davrlashtirish murakkab vazifalardan biridir, chunki davrlarni hisoblash uchun ularning boshlang‘ich nuqtalarini topish juda qiyin. Tarixchilar xristian cherkovi tarixining boshlanishini turli yondashuvlar bilan o‘rgandilar.

Xristianlik tarixida uchta yirik davrni ajratish tabiiydir: ilk xristianlik davri, o‘rta asrlar va yangi xristianlik davridir.

Xristianlik tarixi nafaqat siyosiy voqealar, ya’ni xristianlarning ma’lum bir guruhida hokimiyatning o‘zgarishi: papalar yoki butunjahon patriarxlar tarixi, dunyoviy hokimiyat bilan to‘qnashuvlar, balki teologik qarashlar, ta’limotlar tarixi va rivojlanishini o‘z ichiga oladi.

Xristianlik uchun diniy ta’limotdan tashqari, liturgiya, marosimlar tarixi, xristian dindorlari axloqi va xulq-atvori ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, u har bir davr ichida umumiy tarixiy jarayonning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Axloq va xulq-atvor haqida so‘z borganda, xristian madaniyati tarixini, uning o‘ziga xos tomonlarini: musiqa, tasviriy san’at, adabiyot va me’morchilikni esga olishimiz kerak. Bularning barchasini xristianning hayotidan ajratib bo‘lmaydi.

Cherkov tarixini o‘rgangan xristianlikning turli yo‘nalishlariga oid tarixchilar o‘ziga xos yondashuvlari bilan davrlanishning yangi qirralarini ochib berishgan. Ulardan Nestor, Yevseviy Kesariyskiy, Lukskiy Bartolomey, Rufim Akvileyskiy, Grigoriy Turskiy, Beda Dostopochtimiy, Flatsiy Illirik, Baroniy, Lebedev, Filaret Chernigorskiy, V.V.Bolotov, R.Rote, G.Gasse, Möhler, Zöckler, Kurts, Mitropolit Filaret, S.V.Sannikovlar yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *cherkov tarixi, davrlashtirish, ecclesia, Yevseviy Kesariyskiy, ilk xristianlik, Bibliografik qo‘llanma.*

Аннотация: *Укрепление толерантности между конфессиями и обеспечение религиозной толерантности в обществе является приоритетной задачей в нашей стране. В связи с этим можно сказать, что изучение истории христианства является актуальной проблемой в рамках ряда дисциплин, в том числе религиоведении и историографии.*

Практическая значимость исследования истории христианских общин проявляется в том, что сведения о деятельности неисламских религиозных течений среди населения мало распространены, а структура данных религиозных общин, масштабы деятельности и обычаи неодинаковы.

Информация, представленная в данной статье, раскрывается с использованием таких методов, как теоретический, исторический и сравнительный.

Периодизация истории — одна из сложнейших задач, поскольку очень сложно найти отправные точки для расчета периодов. Историки изучали начало истории христианской церкви с позиций разных подходов.

В истории христианства естественно выделить три крупных периода: раннехристианский период, Средние века и новохристианский период.

История христианства включает в себя не только политические события, т. е. смену власти в определенной группе христиан: историю пап или вселенских патриархов, конфликтов со светской властью; но также историю и развитие богословских взглядов и учений.

Помимо религиозных учений, большое значение для христианства имеют также литургия, история обрядов, нравственность и поведение верующих христиан. Оно также рассматривается как неотъемлемая часть общего исторического процесса каждой эпохи.

Когда мы говорим о морали и поведении, мы должны помнить историю христианской культуры, ее специфические аспекты: музыку, изобразительное искусство, литературу и архитектуру. Все это невозможно отделить от жизни христианина.

Историки разных ветвей христианства, изучавшие историю церкви, своими уникальными подходами раскрыли новые аспекты периодизации. Проведен сравнительный анализ подходов Нестора, Евсевия Кесарийского, Варфоломея Лукского, Руфима Аквилейского, Григория Турского, Беды Достопочтимого, Флация Иллирика, Барония, Лебедева, Филарета Чернигорского, В.В. Болотова, Р. Роте, Г. Гассе, Молера, Зоклера, Курца, митрополита Филарета, С.В. Санникова.

Ключевые слова: *история церкви, периодизация, экклесия, Евсевий Кесарийский, раннее христианство, Библиографический справочник.*

Annotation: *Strengthening tolerance between faiths and ensuring religious tolerance in society is a priority in our country. In this regard, we can say that the study of the history of christianity is a pressing problem within a number of disciplines, including religious studies and historiography.*

The practical importance of researching the history of Christian communities is manifested in the fact that information about the activities of non-Islamic religious movements among the population is limited, and their structure, scope of activity, and traditions are not the same.

The information presented in this article is disclosed using methods such as theoretical, historical and comparative.

Periodization of history is one of the most difficult tasks, since it is very difficult to find starting points to calculate periods. Historians have studied the beginning of the history of the christian church from different approaches.

In the history of christianity, it is natural to distinguish three major periods: the early christian period, the Middle Ages and the new christian period.

The history of Christianity includes not only political events, that is, the change of power in a certain group of Christians: the history of popes or universal patriarchs, conflicts with secular authorities, but also the history and development of theological views and teachings.

In addition to religious teachings, liturgy, the history of rituals, morality and behavior of christian believers are also of great importance for christianity. It is also seen as an integral part of the general historical process of each era.

When we talk about morality and behavior, we should remember the history of Christian culture, its specific aspects: music, visual arts, literature and architecture. All this cannot be separated from the life of a Christian.

Historians of different branches of Christianity who have studied the history of the church have revealed new aspects of the era with their unique approaches. Among them, a comparative analysis of the approaches of Nestor, Eusebius of Caesarea, Bartholomew of Luca, Rufilm of Aquileia, Gregory of Tours, Bede the Venerable, Flacius Illyricus, Baronius, Lebedev, Philaret of Chernigorsk, V.V. Bolotov, R. Rothe, G. Gasse, Moler, Zoclair, Kurtz, Metropolitan Philaret, S.V.Sannikov.

Key words: church history, periodization, ecclesia, Eusebius of Caesarea, early christianity, Bibliographic reference.

KIRISH

O‘zbekiston xalqining boy ma’naviy merosi, qadimiy madaniyati va turli millat vakillarining diniy e’tiqodlari xalqaro hamjamiyatning qiziqish obyektiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi dunyoviy davlat hisoblanib, davlat dinlararo tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Yurtimizda konfessiyalar o‘rtasidagi bag’rikenglikni mustahkamlash, jamiyatda diniy tolerantlikni ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu vazifalarni to‘la-to‘kis bajarishda dinshunoslik sohasining hissasi cheksiz desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimizning “Diniy bag‘rikenglik azal-azaldan o‘zbek xalqi mentalitetining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Tarixning murakkab davrlarida yurtimiz musulmonlari boshqa din vakillariga mehr-muhabbat va xayri saxovat ko‘rsatib, beg‘araz yordam va ko‘mak berganlar” (Mirziyoyev Sh., 2018:451) degan so‘zlari buning yaqqol misoli bo‘la oladi.

Dinshunoslikdagi har bir o‘rganilayotgan masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi F-5024-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 4-sentabrdagi PQ-4436-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 5-iyuldagi O‘RQ-699-son “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida belgilab berilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan tizimli ishlarning muayyan yo‘nalishlariga bevosita bog‘liq.

Bu borada aytishimiz mumkinki, xristianlik tarixini o‘rganish qator fanlar doirasida, jumladan, dinshunoslikda, tarixshunoslikda dolzarb masala hisoblanadi.

Xristian jamoalari tarixini tadqiq etishning amaliy ahamiyati aholi orasida noislomiy diniy yo‘nalishlar faoliyatiga doir ma’lumotlarning chegaralanganligi sababli, ularning tuzilishi, faoliyat doirasi hamda urf-odatlari bir xil emasligining yoritib berilishida namoyon bo‘ladi.

USLUBLAR

Ushbu maqolada keltirilgan ma’lumotlar nazariy, tarixiy va qiyoslash singari metodlar yordamida ochib berilgan.

Cherkov tarixini o‘rgangan xristianlikning turli yo‘nalishlariga oid tarixchilar o‘ziga xos yondashuvlari bilan davrlanishning yangi qirralarini ochib berishgan. Ulardan Nestor, Yevseviy Kesariyskiy, Lukskiy Bartolomey, Rufim Akvileyskiy, Grigoriy Turskiy, Beda Dostopochtimiy, Flatsiy Illirik, Baroniy, Lebedev, Filaret Chernigorskiy, V.V.Bolotov, R.Rote, G.Gasse, Möhler, Zöckler, Kurts, Mitropolit Filaret, S.V.Sannikovlar yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR

Xristianlikda cherkov – ushbu din vakilining diniy faoliyati yoki ibodati uchun mo‘ljallangan binodir. Dindorlar jamoasining ibodat qilish uchun “maxsus alohida bino” sifatidagi bunday ta’rifi ilk xristianlar uchun begona hisoblangan, chunki ular bir-birlarining qo‘nim topgan uylarida uchrashishgan (Muqaddas Kitob, Havoriylarning faol., 2020:2,5,21). Cherkov atamasi Bibliyada yunoncha “εκκλησία” – “ecclesia” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “chaqirilganlar” yoki “odamlar yig‘ilishi”ni anglatadi (Apeabu J., 2020:4). Shu bois, cherkov so‘zi bino emas, balki odamlarni o‘zini ham bildirib kelishi mumkin (Muqaddas Kitob, Havoriylar faol., 2020:12,34-35). Bunga Bibliyada keltirib o‘tilgan havoriy Pavlusning Efes shahridagi faoliyati davri yaqqol misol bo‘la oladi. Havoriy Pavlus Efes shahrida Iso Masih ta’limotini yoyish davrida, o‘sha yerning hunarmandlari tomonidan uyushtirilgan fitna orqali tub aholi yig‘ilishib to‘polon ko‘tarishadi (Muqaddas Kitob, Havoriylar faol., 2020:34-35). Mana shu aholining “yig‘ilishi” bu yerda “cherkov” atamasining ma’nolaridan biridir.

Yangi Ahddagi “cherkov” so‘zi esa “muloqot qilish” yoki “ibodat qilish uchun yig‘ilgan odamlar” bilan bog‘liq (Muqaddas Kitob, Pavlusning Rimliklarga maktubi, Pavlusning Korinfliklarga birinchi maktubi, Pavlusning Kolosaliklarga maktubi, 2020:5,21). Bunga misol qilib, havoriy Pavlusning Korinf shahridagi dindoshlariga yozgan xatida yahudiy Akiy va Priskillaning uyida ibodatga yig‘iladigan jamoaga salom yo‘llagan (Muqaddas Kitob, Pavlusning Korinfliklarga birinchi maktubi, 2020:21). Ushbu xat mazmunidan kelib chiqib, bu yerdagi “cherkov” so‘zi ibodat qilish maqsadida yig‘ilgan odamlar ma’nosini ilgari suradi.

Keyinchalik, xristianlik qonuniylashtirilib, Rim imperiyasida katta ta’sirga ega bo‘lganida, xususan, IV asrda imperator Konstantin dinni qabul qilganidan keyin cherkov so‘zi “dindorlar uchrashadigan bino” degan ma’noni anglata boshlagan.

“Cherkov” so‘zi yana xristian konfessiyalari hamda mahalliy xristian jamoalarini, misol uchun “pravoslav cherkovi”, “katolik cherkovi” yoki “lyuteran cherkovi”ni anglatishda muhim o‘rin egallaydi.

Cherkov tarixi, ya’ni xristianlik tarixi ma’lum bir hududda yashovchi xristianlarning bir guruhiga qaratilgan. Masalan, rus tilidagi “Cherkov tarixi” (“История церкви”) deb nomlangan kitoblarning aksariyati rus pravoslavligi tarixi haqida hikoya qiladi, ba’zida bu tarix Odam Atodan boshlanadi (masalan, Nestorning “O‘tgan yillar haqidagi risola” (“Повесть временных лет”). G‘arb tarixchilari cherkov tarixini tasvirlaganda faqat papalik tarixi haqida yozgan (Lukskiy Bartolomey “Cherkovning yangi tarixi” (“Новая история церкви”) (Санников С., 2002:45). Bunday yondashuv nisbatan torroq hisoblanib, nomidan kelib chiqqan holda, “cherkov tarixi” ushbu din mavjud bo‘lgan barcha mintaqadagi tarixini birlashtirgan holda o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Xristianlik tarixi nafaqat siyosiy voqealar, ya’ni xristianlarning ma’lum bir guruhida hokimiyatning o‘zgarishi: papalar yoki butunjahon patriarxlar tarixi, dunyoviy hokimiyat bilan to‘qnashuvlar, balki teologik qarashlar, ta’limotlar tarixi va rivojlanishini o‘z ichiga oladi.

Xristianlik uchun diniy ta’limotdan tashqari, liturgiya, marosimlar tarixi, xristian dindorlari axloqi va xulq-atvori ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, u har bir davr ichida umumiy tarixiy jarayonning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Axloq va xulq-atvor haqida so‘z borganda, xristian madaniyati tarixini, uning o‘ziga xos tomonlarini: musiqa, tasviriy san’at, adabiyot va me’morchilikni esga olishimiz kerak. Bularning barchasini xristianning hayotidan ajratib bo‘lmaydi.

Xristianlik tarixining fanda alohida yo‘nalish sifatida kiritgan Yevseviy Kesariyskiy hisoblanadi, u 10 ta kitobda “Cherkov tarixi” (“Церковная история”) va “Imperator Konstantin yilnomalari” (“Хроники императора Константина”)ni yozib qoldirgan. Ularda nafaqat hodisalarni qayd etish, balki ularning sabablarini tahlil qilish ham asosiy o‘rin egallagan.

378-yilgacha xristianlik tarixini tasvirlab bergan Yevseviy kitoblari ko‘plab taqlidlarga jumladan, Iyeronim, Rufim Akvileyskiy va boshqa yilnomachilarning mashhur asarlariga sabab bo‘ldi. Keyingi asrlarda tarixchilar asosan Yevseviy kitoblariga keyingi davrlar voqealarining tavsiflarini qo‘shish bilan cheklanishdi. Shunday qilib, V asrda Yevseviy tarixini Suqrot (439-yilgacha), keyin Yevagriy (VI asr oxirigacha) va boshqalar yakunlagan.

O‘rta asrlarda xristian tarixi bo‘yicha deyarli hech qanday asar bitilmagan. Asosan, xristianlik tarixi siyosiy tarix bilan bog‘liq holda taqdim etilgan yoki u alohida mamlakatlar va xalqlar tarixining tavsifiga qo‘shilgan. Masalan, Grigoriy Turskiyning mashhur “Franklar tarixi” yoki Beda Dostopochtimiy tomonidan “Ang qabilalarining cherkov tarixi” asarlari bunga misol bo‘la oladi.

XV asrdan boshlab xristianlik tarixini o‘rganishda jonlanish boshlandi. Yangi davrning birinchi asari protestant Magdeburgda tuzilgan “Magdeburg asrlari (Магдебургские центурии)” – “asrlarga bo‘lingan tarix” deb nomlangan edi. Bu Flatsiy Illirik boshchiligidagi mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan va xristianlikning o‘n sakkiz asrini qamrab olgan

asardir. Ushbu asar ko‘plab Yevropa kutubxonalaridan yig‘ilgan cherkov tarixi bo‘yicha keng ko‘lamli materiallar to‘plami bo‘lgan. Ko‘p o‘tmay, katolik cherkovi tomonidan kardinal Baroniyning “Cherkov hayotining tahlili (Анализ церковной жизни)” asari dunyo yuzini ko‘radi. U asarida katolik cherkovining pokligini isbotlashga intildi va Konstantinni xristian hukmdorining namunasi deb hisobladi.

XVII asrda Germaniyada lyuteran va katolik cherkovlarida, keyinchalik Fransiyada va boshqa mamlakatlarda xristianlik tarixiga oid keng ko‘lamli ishlar paydo bo‘la boshladi.

Sharqda cherkov tarixi asarlari XIX asrgacha deyarli yo‘q edi. Ammo istisno sifatida barcha davlat va cherkov voqealari to‘g‘risida yozgan yilnomachilarni keltirish mumkin. Kiyev Rusidagi eng mashhur yilnomachi rohib Nestor edi. Biroq, xristianlik tarixiga XVIII asrning oxirigacha biron qiziqish mavjud emas edi. Cherkov tarixi nafaqat dunyoviy, balki diniy ta’lim muassasalarida ham o‘qitilmagan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sovet davri tarixining juda tez rivojlanishi sezilarli o‘zgarish edi. Misol sifatida Moskva ilohiyot akademiyasida shakllangan tarixiy maktab alohida ajralib turardi. U yerdagi professor Gorkiy, Filaret Chernigorskiy, keyinchalik professor Lebedev va uning shogirdlarini nomlash kifoya. Sankt-Peterburg ilohiyot akademiyasida professor Bolotov va Brilliantovlar, Kiyev diniy akademiyasida aka-uka Ternovskiylar o‘z faoliyatlari bilan ajralib turishgan.

Biroq, ushbu davrdagi rus mualliflarining aksariyat asarlari xolislik emas, balki monografik xususiyatga ega va pravoslavlik yoki ilk xristianlik tarixiga tegishli edi. G‘arbiy xristianlik tarixi esa ushbu asarlarda keng tasvirlanmagan, garchi XIX asrning oxirida Rossiyada xristianlik tarixiga oid G‘arbiy Yevropa kitoblarining tarjimalari paydo bo‘la boshlagan.

XX asrning oxiriga kelib, xristianlik tarixi fan sifatida xilma-xil bo‘lgan ko‘p asarlarga ega. “Bibliografik qo‘llanma (Библиографическом путеводителе)” da ularning ba’zilari, shuningdek, xristianlik tarixiga oid zamonaviy manbalar bilan ishlash yondashuvlari aniqlangan.

Tarixni davrlashtirish murakkab vazifalardan biridir, chunki davrlarni hisoblash uchun ularning boshlang‘ich nuqtalarini topish juda qiyin. Tarixchilar xristian cherkovi tarixining boshlanishini turli yondashuvlar bilan o‘rgandilar.

Xristianlik tarixida uchta yirik davrni ajratish tabiiydir: ilk xristianlik davri, o‘rta asrlar va yangi xristianlik davridir.

Ilk xristianlik davri – yunonlar va rimliklar asosiy rol o‘ynagan davr hisoblanadi. Mazkur davrda cherkov tuzilishi va ta’limoti katta o‘zgarishlar va rivojlanishga yuz tutgan. Aksariyat tarixchilar bu davrning yakuni deb VI-VII-asrlarni aytishgan.

Ikkinchi – o‘rta asrlar davri cherkov va davlat faoliyatining jadal rivojlanishidir. G‘arbda cherkov hukumat ustida hukmronlik qilishga harakat qilgan, sharqda esa xristianlik hukumat tomonidan bostirilgan. Bu vaqtda qizg‘in diniy bahslar ancha susaydi. Tarixchilar o‘rta asrlar davrini ancha uzoqroqqa cho‘zgan bo‘lsalar ham, bu davr umumiy reformatsiya bilan yakunlangani qabul qilinadi.

Uchinchi davr – yangi davr. Bu davr xristianlikda uchinchi ming yillikgacha davom etgan keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Uning asosiy xususiyati davlatning cherkovdan ajralishi hisoblanadi. Bu davrda ushbu din tez tarqalib, ko‘paydi, shuningdek, turli shakllarni o‘zida mujassam etdi.

Manbalarda ko‘rsatilishicha, davriy jihatdan xristianlikning shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishi milodiy I asrdan V asrgacha davom etgan. Va ko‘rsatilgan bu davr uch bosqichga bo‘linib, unda yangi diniy e’tiqodning quyidagi davriy aqidalari qaror topgan:

1.Dolzarb esxatologiya bosqichlari (I asrning ikkinchi qismi);

2.Xristianlik diniy e’tiqodining moslashuv bosqichi (II asr);

3.Saltanatda hukmdorlik uchun kurash bosqichi (III-V asr).

Uch bosqichdan iborat xristianlikning shakllanishidan to mukammal diniy e’tiqod darajasiga yetgunicha o‘tgan davr ichida muttasil jiddiy evolyusiyalar, talqinlar to‘qnashuvi, o‘zaro qarama-qarshiliklar, ijtimoiy va milliy kurashlar kabi jarayonlar yuz bergan (Низомиддинов Н., 2023:15).

V.V.Bolotovning “Cherkov tarixiy asarlar to‘plami (Собрание церковно-исторических трудов)” 8 tomlik asari “Qadimgi cherkov tarixi bo‘yicha ma’ruzalar. Cherkov tarixiga kirish (Лекции по истории древней церкви. Введение в церковную историю) ” deb nomlangan 2-tomida cherkov tarixi bilan shug‘ullangan tarixchilarning xristianlikdagi davrlar bo‘yicha yondashuvlari yoritib o‘tilgan.

Muallif asarida xristianlik rivojlanishining davrlarga bo‘lish asosi – hayotga yangi boshlang‘ichlarni kiritadigan voqea bo‘lishi kerakligini ta’kidlab o‘tgan. Butun tarixni faqat ikkita qismga bo‘lish mumkin: reformatsiyadan oldingi va keyingi, ya’ni qadimgi-o‘rta va yangi tarix. Protestant ilohiyotchisi R.Rote cherkov tarixini 1517-yilgacha bo‘lgan kafolik va protestantga ajratgan. Rotega javoban Bolotov bunday bo‘linish bilan birinchi davrning hajmi kattaligini inobatga olgan holda, kafolik cherkovining alohida davrlarga bo‘linishi kerakligini aytib o‘tadi.

G.Gasse cherkov hayotining davrlarini cherkovning davlatga munosabati nuqtai nazaridan ajratadi va tarixni Konstantingacha bo‘lgan davrga – cherkov o‘z ichki hayotini yashagan davr, Konstantin davridan keyingi davrga – cherkov o‘zidan uzoqlashdi va davlat bilan ma’lum munosabatda bo‘lgan davr, protestant davri – cherkov yana o‘ziga qaytgan davr deya ajratadi. Ba’zilar (Neander, Schaff, Baur, Myuller, Loofs, Kraus) esa Konstantinning o‘rniga 590-604-yillardagi rimlik Grigoriy hukmronligini davr uchun chegara deb hisoblaydilar; boshqalar (Kurtz, Zöckler, Alzog, Hergenrother, Funk) – 692-yildagi Trull soborini; Gizeler – 726-yil ikona to‘g‘risidagi bahslarning boshlanishini; yana ayrimlar Karl Velikiy davrini shunday muhim bosqich sifatida qabul qiladilar.

Xristian hayotining ta’lim shakllariga ko‘ra bo‘linishi juda keng tarqalgan. Katolik olimi Möhler (Moler) quyidagi bo‘linishni taklif qiladi:

1. Birinchi davr - klassik yunon-rim shaklidagi cherkov – Ioann Damaskin va german qabilalarining tarbiyachisi Bonifatsiygacha bo‘lgan davr.

2. Ikkinchisi – german shaklidagi VIII-XV asrlardagi davr.

3. Uchinchisi – XV asr oxiridan hozirgi kungacha yunon-rim va german shaklidagi davr.

Zöckler (Zokler) ham tarixni uch davrga ajratadi:

1. Qadimiy davr – yunon-rim shaklidagi hayot.

2. O‘rta davr – qisman Vizantiyadagi va qisman german-rim shaklidagi hayot.

3. Yangi davr – zamonaviy hayotga moslashgan cherkov.

Shu bilan birga, u antik davrni ikki davrga ajratadi:

- quvg‘inlar va shahidlar davri (ecclesia pressa) (100–323);
- triadologik va xristologik tortishuvlar davri (323–692).


O‘rta asrlarni esa uch davrga bo‘lgan:

- o‘rta asr transformatsiyasi (Vorbildung) (692-1085), Grigoriy VII vafotigacha bo‘lgan davr;
- o‘rta asrlarning gullagan davri (Ausbildung) (1085-1303), Grigoriy VII dan Bonifatsiy VIII gacha bo‘lgan davr;
- tanazzul davri (Durchbildung) (1303-1517), Bonifatsiy VIII dan reformatsiya davrigacha bo‘lgan vaqt.

Kurts xristianlik taraqqiyotida ikki fazani ajratadi:

- qadimgi klassik shaklda cherkov hayotining rivojlanishi (1453-yilgacha bo‘lgan davr);
- german shaklidagi cherkov hayotining rivojlanishi (IV asrdan hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davr).

Kurtz sxemasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:



Shunday qilib, o‘rta davrning boshlanishi haqidagi masala juda ziddiyatli bo‘lib, Kurts bir vaqtning o‘zida ikkita parallel oqimni tan olishga moyil bo‘lgan: biri antik davrga, ikkinchisi o‘rta davrga (Болотов В., 2000:23).

Xristianlik shakllanishi davrlash masalalaridagi yana bir jihat havoriylar davri bilan bog‘liq. V.V.Bolotovning o‘zi havoriylar davrini cherkov tarixi bilan bog‘liq deb hisoblamagan. Bunga sabab qilib, quyidagilarni keltirgan: birinchi holda, tarixni taqdim etishda bir xillik va mutanosiblik buziladi; ikkinchidan, natijada tarixning eng muhim voqealarining tushunarsiz taqdim etilishi bo‘ladi. Bundan tashqari, Bibliyada tarixiy vaziyat juda kam yoritiladi, masalan, Kolosaliklar kabi kichik birliklarning mavqeyini bilish uchun Bibliyada yetarli ma’lumot yo‘q, faqat umumiy xulosalar bilan qanoatlanishning o‘zi qisqa va ko‘rimsiz ma’lumot berishni anglatadi.

Mitropolit Filaret esa bu davrni cherkov tarixiga emas, Bibliya tarixiga bog‘laydi. Havoriylar davri cherkov tarixi davrlaridan farq qiladi, chunki bu davrda ko‘rib chiqilgan masalalar fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, ularning yechimini o‘zgartirib bo‘lmas edi. Misol uchun, havoriy kengashining yahudiy marosimlari xristianlarga nisbatan qo‘llanilishi shartmi yoki yo‘qligi haqidagi qarori tarix tomonidan xristianlik mustaqil jahon dini bo‘lishi kerakmi yoki yahudiylik yo‘nalishlariga qo‘shilishi kerakmi degan savolga javob beradi.

Havoriylik davri Bibliya tarixi bilan chambarchas bog‘liq, chunki u bitta manbadan foydalanadi. Shuning uchun, tarixchi cherkov tarixini taqdim etayotganda, faqat Bibliyada bo‘lmagan voqealarni taqdim etish lozim deb hisoblagan.

Xristianlik tarixchisi S.V.Sannikov o‘zining “Xristianlikning yigirma asri. Birinchi mingyillik (Двадцать веков христианства. Первое тысячелетие)” (Санников С., 2002:46) kitobida xristianlik dini rivojlanishini quyidagi davrlarga bo‘lib, tadqiq qilgan:

1. Ilk xristianlik bo‘yicha antik davr – I-III asrlarga to‘g‘ri keladi. Ushbu davr Iso Masih dan imperator Konstantingacha bo‘lgan davr sanaladi. “Quvg‘in ostidagi xristianlik” – uning asosiy mavzusi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2. Ilk xristianlik bo‘yicha so‘nggi antik davr – IV-VI asrlar hisoblanadi. Bu davrning asosiy tushunchasi esa “Hukmronlik qilgan xristianlik”dir. Bu davr Konstantinning hukmronligidan to Grigoriy Velikiy davrida papa hokimiyatining o‘rnatilishi va Yustinian

davrida Vizantiyaning gullab-yashnashigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

3. VII asr boshlari – XI asr o‘rtalari esa ilk o‘rta asrlarga bag‘ishlangan. Bu davrni “Bo‘lingan cherkov” deb atash mumkin. U papalikning boshlanishi va Vizantiyaning yuksalish davridan tortib, 1054-yilda cherkovning Sharq va G‘arbga rasmiy bo‘linishigacha bo‘lgan vaqtni qamrab oladi.

4. XI asr o‘rtalaridan XVI asr boshlarigacha bo‘lgan davrni, ya’ni cherkovning bo‘linishidan to 1517-yildagi reformatsiya boshlanishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan klassik va so‘nggi o‘rta asrlar hisoblanadi. Bu davrning qisqacha tavsifi esa “zabt etilgan xristianlik” deb ataladi.

5. Reformatsiya davri – XVI asr boshidan XVIII asr oxirigacha bo‘lgan davr. Bu Martin Lyuter davridan Fransiya va Amerika inqiloblarining siyosiy qo‘zg‘olonlari boshlanishigacha bo‘lgan vaqtni ilgari suradi. Tarixchi bu davrni “Isyonchi xristianlik” deb atagan.

6. XVIII asr oxiridan 3-ming yillik boshlarigacha davom etadigan zamonaviy davr, ya’ni davlatning xristianlikdan ajralishi davridan to xristianlikdan keyingi davrgacha hisoblash mumkin. Bu davr “Zamonaviy xristianlik” deb nomlangan.

XULOSA

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ta’kidlanganidek, “Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o‘rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz”. Bundan kelib chiqadiki, dinlararo bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash hamda zamonaviy global jarayonlarni tushunish uchun diniy konfessiyalarning tarixi va zamonaviy faoliyatini, jumladan, xristian tashkilotlarining faoliyatini bilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, xristianlik tarixida dastlabki xristianlik shakllanish bosqichlarini o‘rganish dolzarb masalalardan ekanligini hisobga olgan holda, tarixchilar buni turlicha o‘ziga xos yondashuvlar orqali yoritib berishgan. Bundan kelib chiqadiki, tarixning turli xil davrlanishi o‘sha davrdagi voqealarni chuqurroq anglab yetishga poydevor bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. (2018) “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” 2-jild. T. «O‘zbekiston» NMIU.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. (2017) 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 15.08.2017-yil F-5024-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2017) “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 16.08.2017-yil PF-5416-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2019) “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2019-yil 4-sentabr PQ-4436-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2021) “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”. 2021-yil 5-iyul O‘RQ-699-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022) “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. 2022-yil 28-yanvar PF-60-son.
7. Alimova M., Ernazarov O. (2022) Dinshunoslikning dolzarb muammolari [Matn] / M.Alimova, O.Ernazarov. – Toshkent: Adast poligraf. – 292 b.
8. Alimova M., Ernazarov O. (2023) Millatlararo va diniy bag‘rikenglik – samarali hamkorlikning muhim omili. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi. – 352 b.
9. Акимов В.В. (2012) История Христианской Церкви в доникейский период. - Минск : Ковчег. - 266 с.
10. Apeabu A.J. (2020) A HISTORY OF THE EARLY CHURCH (05 BC-AD 451). (Ph.D.) Department of Christian Religious Studies Federal College of Education, Zaria.
11. Бароний Ц. (1588—1607) Церковные анналы.
12. Болотов В.В. (2000) Собрание церковно-исторических трудов : [В 8-ми кн.] : К столетию со дня кончины / [Вступ. ст. А.И. Сидорова]; Фонд «Рус. православие». – Москва : Мартис, 1999-. / Т. 2: Лекции по истории древней церкви. Введение в церковную историю.
13. *Десницкий А.С.* (2021) Зарождение христианства: что мы знаем и откуда? // Ориенталистика.
14. Исломов З., Ҳайдаров И. Христианлик: ибодатхона, ибодат ва маросимлар [Матн] / З. Исломов, И.Ҳайдаров. - Тошкент: “Qaqnus-media”, 2020. - 192 б.
15. Matthias F.I. (1574) Centuriae Magdeburgienses.
16. Муратов Д., Алимова М., Каримов Ж. (2019) ДИНШУНОСЛИК / дарслик. – Тошкент: «Наврўз» нашриёти.
17. Muqaddas Kitob. (2020) (Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti tomonidan O‘zbekiston Bibliya jamiyati bilan hamkorlikda tayyorlangan) Toshkent: Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti.
18. Низомиддинов Н. (2023) Жанубий, Жануби-Шарқий, Шарқий ва Марказий Осиёда христианлик тарихи [Матн] / Нажмиддин Низомиддинов. – Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси.
19. Пантелеев А.Д. (2014) История раннего христианства. Хрестоматия / Сост.— Санкт-Петербург : СПГУ.
20. Санников С.Б. (2002) Двадцать веков христианства. Первое тысячелетие. Учебное пособие по истории

христианства: В 2т. – Т.1. - Одесса: Изд-во ОБС “Богомыслие”.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. (2018) “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” 2-jild. T. : «O‘zbekiston» NMIU.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. (2017) 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 15.08.2017-yil F-5024-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2017) “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 16.08.2017-yil PF-5416-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2019) “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2019-yil 4-sentabr PQ-4436-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. (2021) “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”. 2021-yil 5-iyul O‘RQ-699-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022) “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. 2022-yil 28-yanvar PF-60-son.
7. Akimov V.V. (2012) Istoriya Xristianskoy tserkvi v donikeyskiy period. Minsk : Kovcheg. 266 s.
8. Alimova M., Ernazarov O. (2022) Dinshunoslikning dolzarb muammolari [Matn]/ M.Alimova, O.Ernazarov. Toshkent: Adast poligraf. 292 b.
9. Alimova M., Ernazarov O. (2023) Millatlararo va diniy bag‘rikenglik – samarali hamkorlikning muhim omili. Toshkent : O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi. 352 b.
10. Apeabu A.J. (2020) A HISTORY OF THE EARLY CHURCH (05 BC-AD 451). (Ph.D.) Department of Christian Religious Studies Federal College of Education, Zaria.
11. Baroniy Ts. (1588—1607) Tserkovnie annali.
12. Bolotov V.V. (2000) Sobraniye tserkovno-istoricheskix trudov: K stoletiyu so dnya konchini / [Vstup. st. A.I. Sidorova]; Fond «Rus. pravoslaviye». // T. 2: Leksii po istorii drevney tserkvi. Vvedeniye v tserkovnuyu istoriyu. Moskva : Martis, 1999.
13. Desniskiy A.S. (2021) Zarojdeniye xristianstva: chto mi znayem i otkuda? // Oriyentalistika.
14. Islomov Z., Haydarov I. (2020) Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlar [Matn] / Z. Islomov, I.Haydarov. Toshkent: Qaqnus-media. 192 b.
15. Matthias F.I. (1574) Centuriae Magdeburgienses.
16. Muratov D., Alimova M., Karimov J. (2019) DINSHUNOSLIK / darslik. Toshkent : Navro‘z.
17. Muqaddas Kitob. (2020) (Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti tomonidan O‘zbekiston Bibliya jamiyati bilan hamkorlikda tayyorlangan) Toshkent : Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti.
18. Nizomiddinov N. (2023) Janubiy, Janubi-Sharqiy, Sharqiy va Markaziy Osiyoda xristianlik tarixi (Matn) / Najmiddin Nizomiddinov. Toshkent : “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi.
19. Panteleyev A.D. (2014) Istoriya rannego xristianstva. Xrestomatiya. / Sost. Sankt-Peterburg : SPGU.
20. Sannikov S.B. (2002) Dvadsat vekov xristianstva. Pervoye tisyacheletiye / Uchebnoye posobiye po istorii xristianstva: V 2t. T.1. Odessa: Izd-vo OBS “Bogomisliye”.